

“ONLAYN MUHTITNING O‘SMIR SHAXSIGA TA‘SIR VA XAVF-XATARLARNI MINIMALLASHTRISH”

Tadjiboyeva Mexrinigor Baxtiyor qizi

Mafsofaviy ta‘lim Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Qo‘qon universiteti Andijon Fillilali.

Tel+998942399499

Xalimjonov Abduqunduz Raximjon o‘g‘li

“Kompuyuter Injiniring va raqamki texnologiya kafedra o‘qtuvchisi”

Qo‘qon universiteti Andijon Fillilali.

Email: xalimjonov1234@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248032>

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda onlayn muhitning o‘smir shaxsiga ta‘sir va xavf-xatarlarni minimallashtirishda, haqiqiy dunyo o‘zaro ta‘siri va tajribalarini taqlid qiluvchi masofaviy (onlayn) tarzda sifatida, odamlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlariga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator psixologik xususiyatlarni namoyish etadi. Onlayn muhitning psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: onlayn muhit, internet, virtual borliq, tobelik, elektron, psixologik ta‘sir, kibermaydon, informatsion madaniyat.

Hozirgi biz yashab turgan dunyoda texnologiyalar misli ko‘rilmagan darajada juda ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan ma‘lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Biz uchun bu boshqa dunyoga tashrif buyurish, dam olish, va muammolardan tanaffus qilish imkoniyatini beradi. Ammo uning ko‘plab salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Virtual muhit, haqiqiy dunyo o‘zaro ta‘siri va tajribalarini taqlid qiluvchi raqamli makon sifatida, odamlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlariga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator psixologik xususiyatlarni namoyish etadi.

Krish: XXI asr bolalari kompyuter o‘yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘tib, ulg‘aymoqda. Bu quvonarli holat albatta. Lekin har narsaniyam o‘z me‘yori bo‘lmog‘i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Chunki internetdan ko‘p foydalanish, o‘smir shaxsida “o‘qish” va “o‘rganish” ga intilish o‘rniga “izlash” ni afzal ko‘rishni yuzaga keltiradi va internetga qaram shaxslarga aylanadi.

Onlayn muhitning asosiy psixologik xususiyatlaridan biri mavjudlik hissi bo‘lib, virtual dunyoda “bor bo‘lish” hissini anglatadi. Ushbu mavjudlik hissi virtual muhit bilan kuchli hissiy aloqani yaratishi va foydalanuvchilar uchun umumiy immersiv tajribani oshirishi mumkin. Ko‘pincha avatarlar, chat funksiyalari va ko‘p o‘yinchi o‘yinlari orqali boshqa foydalanuvchilar bilan ijtimoiy muloqotga imkon beradi. Ushbu virtual makonlarda ijtimoiy mavjudlik hissi real dunyodagi ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlarni taqlid qilishi va foydalanuvchilar o‘rtasida aloqa va tegishlilik hissini kuchaytirishi mumkin.

Taqiqotning vazifalari: Onlayn muhit shaxslarga jinsi, tashqi ko‘rinishi, shaxsiyati va ijtimoiy rollari kabi o‘z shaxsiyatining turli jihatlarini o‘rganish va tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi. Shaxsni o‘rganishning bu jihati o‘z-o‘zini kashf qilish va shaxsiy o‘sishga olib kelishi mumkin. Umumiy oladigon bo‘lsak ushbu holatda internetga berilib ketgan har bir shaxs o‘zini boshqalar bilan teng ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har bir shaxs – mavqei, salomatligi, millati, jinsi, va boshqa holatlardan qat‘iy nazar – teng darajada barcha uchun barobar o‘yin

maydonida doimiy bir xil qoidalar bo'yicha o'yinni boshlaydi. Bu holatda kim bilan muloqotda bo'lmang geografik masofalar hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Masalan: Yevropami, Avstraliyami, Turkiyami baribir, serverda bamaylixtir suhbatlashish mumkin. Umuman olganda, dunyo huddi torayib qolgandek tuyuladi. Bu muhitda odamlar o'zlarining avatarlari' profillari va o'zaro ta'siri orqali o'zlarini boshqalarga qanday ko'rsatishini nazorat qiladi. O'z imidjini boshqarish qobiliyati o'z- o'zini hurmat qilish, ijtimoiy munosabatlar va boshqalarning idrokiga ta'sir qilishi mumkin. Ayniqsa hozirgi davrda jahonning qator davlatlarida o'z salbiy ta'sirlarini namayon etib ulgurgan. Internet tarmog'idan bolalarni himoya qilishga xizmat qiluvchi texnik imkoniyatlar mavjud. Ular maxsus dasturlar bo'lib, aynan salbiy ta'sir etuvchi, axloqsiz, yomon odatlarni targ'ib qiluvchi sayitlarning ochilishiga yo'l bermaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot 2023-2024 o'quv yilida Andijon shaxridagi 13-maktabning 5-sinf o'quvchilari (yoshi 12-13 da) ishtirokida olib borildi. Jami 45 nafar o'quvchi nazorati guruhi (20 nafar an'anaviy metodlar) va eksperimental guruh (10 nafar, gamifikatsiya usullar) ga ajratildi.

Qo'llanilgan usullar va metodlar.

Onlayn muhitlar quvonch, hayajon, qo'rquv, umidsizlik va g'azab kabi turli xil histuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Ushbu makondagi dizayn, tarkib va o'zaro ta'sirlar hissiy javoblarni keltirib chiqarishi va foydalanuvchilarning umumiy tajribasini shakllantirishi mumkin. virtual muhitlarning immersiv tabiati, mukofot tizimlari, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va jozibador kontentning mavjudligi bilan bir qatorda, ba'zi odamlarda giyohvandlik xatti-harakatlari va haddan tashqari foydalanish naqshlarining rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Ko'p yillardan buyon jahondagi ko'plab mutaxassis olimlar zamonaviy kommunikatsiya qurilmalarining inson markaziy asab tizimiga salbiy elektr-magnit ta'siri mavjudligini takidlab o'tishgan. Bu ayniqsa bolalarning asab tizimiga, organizmiga kuchli ta'sir etadi. Juda ham jizzaki, tajovuskor, asabiy va injiq bo'lib qoladi. Shuningdek tangani ikki tarafi bo'lganidek kompyuter o'yinlarini faqatgina yomon tarafi emas balki yaxshi tomonlarini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: xotirani yaxshilaydi – o'yin o'ynash jarayonida buyumlar va odamlarning holatiga diqqat qilishni o'rganadi. Kompyuterdagi o'yinlarni klaviatura va sichqoncha yordamida o'ynagani uchun qo'lning mayda motorikalari yaxshi rivojlanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir narsaning ijobiy va salbiy tarafi bor.

Bola uchun asosiy qoida me'yor hamda vaqt chegarasini bilishidir. Aynan shu odat foyda zararni ajratib turadi.

Bolalarni onlayn muhitdan olib chiqish uchun quyidagi yo'llardan foydalanishimiz mumkin.

- ✓ Ota-ona bolani doimiy nazorat qilishi
- ✓ Kuniga 30 daqiqadan ortiq kompyuter o'ynashga ruxsat bermaslik
- ✓ Bola bilan do'stona munosabatda bo'lish va u bilan vaqt ajratib birga shug'ullanish
- ✓ Bolani bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Uni kitob o'qitish, sport yoki ijod qilishga qiziqtirish olani motivatsiyasini rivojlantirish, uni rag'batlantirib turish
- ✓ Tobe bo'lgan bolalarga birdaniga kompyuter o'yinlarini o'ynashni cheklash mumkin emas. Aksincha kompyuter o'yinlari o'ynash vaqtini har kuni kamaytirib borish bilan tobelikdan halos qilinadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda onlayn muhitning ushbu psixalogik xususiyatlarini tushunish foydalanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va tadqiqotchilar uchun onlayn makonlarda mas'uliyatli foydalanish, farovonlik va axloqiy amaliyotlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ushbu psixalogik omillarning patentsional ta'sirini tan olgan holda, odamlar onlayn muhit bilan ongli va qastdan shug'ullanishlari mumkin. Ayrim hollarda onlaynlashuv jarayonining jadallashishi o'smirda ijtimoiy munosabatlarni yomon kechishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jalilovna, M. M.(2024). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 130-133.
2. Otabaeva, F. T. (2019). Technology using the case- study method in the study of computer graphics.
3. O'g'li, A. N. K. (2022). O'smirlarda axborot – psixalogik xavsizlikni taminlashning ijtimoiy - psixalogik imkoniyatlari.
4. Utanova, U. (2023). "Kompyuter axborot madaniyati"- submadaniyatning vujudga kelishi.
5. Xosilbekovna, S. F. (2024). Psixologik holatlarga tushishni oldingi olish. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 39(4), 56-58.